НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ
РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
VOLUME:2 ISSUE:5

# GEOGRAFIYA VA IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANLARINI O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI

**Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi**
*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada geografiya fanini o'qitish va undagi metodik jihatdan olib boriladigan jarayonlar aytib o'tilgan. Bundan tashqari umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarni o'qitish yangi bosqichga ko'tarish, maktab o'quvchilarida iqtisodiy va tadbirkorlikka oid bilim ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi fikr - mulohazalar bildirilgan hamda tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *geografiya ta'limi, tanlangan metod, og'zaki bayon metodi, tinglash ko'nikmasi, o'quv materiali, ta'lim tizimi, innovatsionyondoshuv, sifat, sifatli ta'lim, innavatsion ta'lim metodlari (ekskursiya dars, kombinatsion dars, dars konferensiya), ta'lim texnologiyalari, ta 'lim sifatini ta'minlash.*

***Аннотация.*** *В данной статье описывается преподавание географии и связанные с ним методические процессы. Кроме того, были даны мнения и рекомендации о путях поднятия преподавания экономических наук в общеобразовательных школах на новый уровень, развития экономических и предпринимательских знаний школьников, повышения качества образования.*

***Ключевые слова:*** *обучение географии, избранный метод, метод устного изложения, умение аудировать, учебный материал, образовательная система, инновационный подход, качество, качественное образование, инновационные методы обучения (экскурсионный урок, комбинированный урок, урок-конференция), образовательные технологии, обеспечение качества, образования.*

***Abstract.*** *This article describes the teaching of geography and related methodological processes. In addition, opinions and recommendations were given on ways to raise the teaching of economic sciences in secondary schools to a new level, develop the economic and entrepreneurial knowledge of schoolchildren, and improve the quality of education.*

***Key words:*** *teaching geography, chosen method, oral presentation method, listening skills, educational material, educational system, innovative approach, quality, quality education, innovative teaching methods (excursion lesson, combined lesson, conference lesson), educational technologies, quality assurance, education.*

**Kirish:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Geografiya" "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Tadbirkorlik asoslari" fanlarini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda geografik savodxonlikni va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilishga hamda o'quvchilarga tadbirkorlik faoliyati va tushunchasining shakllanishi, evolutsiyasi, mohiyati va mazmunini, tadbirkorlikni tashkil etish, amalga oshirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida bilim berishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar,ko'nikma va malakalarni egallaydilar.O'quv materiali mazmunli ta'limning turli vositalari yordamida

va turli metodlar bilan o'zlashtiriladi. Shu sababli o'qituvchi oldida muvaffaqiyatliroq va samaraliroq o'qitish va o'qishga yordam beradigan yo'llarni egallash muammosi turadi.

O'quv materiallarini o'rganishning turli shakllarini qidirish, darsning maqsadlari,vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Tabiiy fanlar, materik va okeanlar, O’zbekiston tabiiy geografiyasi singari fanlarni asosiy tushuncha va tamoyillarga tayanib ish ko'riladi. Geografiya ta'limi metodikasi qator tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamda gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'langan. Geografiya o'qitish metodikasini geografiya fani bilan bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-geografiya fani maktab geografiyasi mazmunini asosini tashkil qiladi va uning

rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Geografiya fanidagi yutuqlar va o'zgarishlarni maktab geografiyasining mazmunida va tuzilishida aks ettirib boradi;

- geografiya fanining mazmuni maktab geografiyasining tuzilishida aks etgan. Maktab geografiyasi ikki qismdan iborat: tabiiy va iqtisodiy geografiya.

Geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar tegishli metod noto'g'ri tanlangan bo'lsa o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tanlash ma'lum bir tamoillar asosida olib borilmog'i lozim. Ular quyidagilardan iborat. «Tanlangan metod» o'tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo'lishi lozim. Bu metodni samaradorligini birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Ko'p xollarda bir xil mazmundagi dars o'tish uchun yagona bitta metodni qo'llash ko'p xollarda samara bermaydi. Shuning uchun o'qituvchilarni va o'quvchilarni faoliyatiga mos keladigan metodlarni tanlash lozim. Bunda o'quvchilarni bilishimkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik darajasi, vaqt omili va geografiya kabinetida zarur bilim manbalarining bor yo'qligi metod turini aniqlab beradi. O'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini hisobga olish tamoyili, bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- o'quv mavzusining murakkabligiga;
- nazariy bilimlar xajmiga;
- sinf o'quvchilari darajasiga;
- o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyatiga;

O'quvchilarning iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishda integratsiya, mehnat munosabati bilan bog'liqlik , tarbiyaviy omillar birligi, jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy ehtiyojiga moslik, shaxsning ehtiyoj va imkoniyatlari birligi individual xususiyatlarini inobatga olish, tabaqaviy yondashish, jamoa imkoniyatining ustuvorligi, o'yin xarakteriga egalik kabi tamoyillar alohida o'rin tutadi. Mazkur tamoyillarni amalga oshirishda o'quvchilarning iqtisodiy ta'lim qadriyatlariga asoslanadi va ajralmas pedagogik jarayonlarida aks etadi. Ta'limga innovatsion yondashuv

sharoitida iqtisodiy fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish mazkur fanlarning o'qitilish sifatini oshiradi. Bunda:

Xorijiy davlatlarning shaxsning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin tehnologiyalaridan foydalanishga oid tajribasi, xususan, "Monopoliya", Pul oqimi" hamda "Iqtisodiy o'n ikkilik" o'yin tajribalarini qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Dars mashg'ulotlarida "Muammoli o'qitish", "Guruhiy qidiruv" va "Modulli ta'lim" kabi metodlarga asoslangan imitatsion xarakterdagi pedagogik ("Ishbilarmon", "Ishchanlik", "Krassvord", "Onagramma", "Rebus") o'yinlar tashkil etilishi o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy muammolarni rolli o'yinlar asosida mustaqil hal qila olish qobilyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy fanlardan dars konferensiya mashg'uloti zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib, konferensiya, ijtimoiy tarmoqlar (telegram, instagram, facebook va boshqalar) orqali differensial ta'lim texnologiyasidan foydalanib dars olib boriladi. Bunda o'quvchilarning axborot - tahliliy kompetensiyasi shakllanadi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar tavsiya etiladi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish yaxlit tizimini ishlab chiqish, unda fanlararo aloqadorlik hamda

ta'lim tashkilotlari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida integratsiyani aks ettirishga erishish lozim.

2. "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Tadbirkorlik asoslari" fani bo'yicha tashkil etiladigan darslarning interfaollik xarakterida bo'lishiga erishish, bunda asosiy e'tiborni umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining iqtisodiy munosabatlarga kirishish masalalarini rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiq.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida maktab pedagog xodimiga quyidagi tadbirkorlik talablari qo'yiladi: mas'uliyatni o'z bo'yniga olish va his etish; bozor qonun-qoidalarini, talablaridan kelib chiqqan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etish; taraqqiyot bilan barobar qadam tashlash; hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritish; mustaqil fikr yurita olish; maqsadni aniq qo'ya olish; ishbilarmonlik; ijodkor, yaratuvchi; talabchan va mehribon; vaqtning qadriga yetadigan; xushmuomala inson bo'lishi kerak.

**Xulosa:** Geografiya, Tadbirkorlik va Iqtisodiyot fanlari juda qiziq fan va uni o'rgatishning ahamiyati juda katta. Darslarda qo'llaniluvchi metodlar o'quvchilarning o'zlashtirishi hamda uni darslarda qo'llay olishiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Darsning

sifatli holda tashkillanishi va pedagogik, psixologik texnologiyalarni o'qituvchining qo'llay olishi samarali ta'limni yaratib beradi. Ta’limni tashkil etishning umumiy ta’lim, alohida (individual) ta’lim, tashkiliy ta’lim, sinfdars ta’limi, kurs tizimi ta’limi va boshqa turlari mavjud. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta’lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H.Vaxobov, N.R.Alimqulov, N.B. Sultanova. Geografiya o'qitish metodikasi. T.2020, 77-78 b
2. Vaxobov X., Abdunazarov O'., Zaynutdinov A. Geografiya ta'limida darsliklar yaratish muammosi. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. T. 2000, №21, 188-191 b
3. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 86-89.
4. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
5. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
6. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.
7. Ширинова, Н. Д., & Давлатова, М. Х. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СПОСОБ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ПРЕДМЕТНОСТИ И КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova, 40.
8. Давлатова, М. (2023). Typology of expressive emotional relations in linguistics. Современные тенденции при обучении иностранному языку в XXI веке, 1(1), 172-178.
9. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultutive structures. novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.
10. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). ENGLISH RENAISSANCE: TRANSFORMATION OF 61 PHILOSOPHY UNDERSTANDING AS A FACTOR OF INFORMATION CULTURE DEVELOPMENT OF THE EPOCH. Cross-Cultural Studies: Education and Science, 5(1), 61-67.

11. Шадманов, К. (2015). Английская духовность и язык. Дюссельдорф: Изд-во Lambert, 264.
12. Badriddinovich, S. K. (2019). Sadullaev Denis Bakhtierovich From the history of the formation of the system of basic concepts of English philosophy. Science and education today, 10, 45.
13. Shadmanov, K. B. (2015). English spirituality and language. Dusseldorf: Lambert Publishing House, 264.